



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	

SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDIIY RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIIY BAHOLASH



Omonova Nigora Bahodir qizi
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0002-4051-5132

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etishning amaldagi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi hududda turizm infratuzilmasining shakllanish jarayonlarini, investitsion faollikni hamda joylashtirish vositalari va turistik xizmatlar ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni baholashdan iborat. Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda grafik usullardan foydalanilgan. Tahlil natijalari 2020–2024-yillarda viloyatda mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari soni, ularda xizmat ko'rsatilgan shaxslar hajmi hamda ixtisoslashtirilgan va individual joylashtirish obyektlari ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish tendensiyasi shakllanganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining ayrim hududlarda yuqori darajada jamlangani va tumanlar o'rtasida rivojlanish tafovutlari mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida turizm infratuzilmasiga jalb qilinayotgan investitsiyalarni hududiy diversifikatsiya qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, muqobil moliyalashtirish manbalaridan foydalanish hamda investitsiya loyihalari samaradorligini muntazam monitoring qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, investitsiya, investitsion faollik, turizmni moliyalashtirish, joylashtirish vositalari, turistik xizmatlar, hududiy rivojlanish, investitsiyalar dinamikasi, Surxondaryo viloyati.

Аннотация. В данной статье проведена сравнительная оценка уровня территориального развития туристской инфраструктуры в городах и районах Сурхандарьинской области. Цель исследования заключается в определении уровня сформированности туристской инфраструктуры по территориям на основе статистических показателей, выявлении существующих территориальных различий и группировке городов и районов по уровню развития. В исследовании использованы методы статистического анализа, сравнительного и структурного анализа, нормализации и рейтинговой оценки. В качестве критериев оценки выбраны количество гостиниц и аналогичных средств размещения, количество номеров, число мест и количество размещённых лиц. На основе данных показателей рассчитан индекс территориального развития туристской инфраструктуры. Результаты анализа показали неравномерность развития туристской инфраструктуры по территории области, лидирующее положение города Термеза, а также последующие позиции Байсунского и Денауского районов. Одновременно выявлено, что в ряде районов уровень инфраструктурной обеспеченности остаётся сравнительно низким. На основе результатов исследования разработаны предложения по обеспечению более сбалансированного территориального развития туристской инфраструктуры, направлению инвестиций в районы с высоким туристским потенциалом, а также совершенствованию системы территориального мониторинга и рейтинговой оценки.

Ключевые слова: туристская инфраструктура, территориальное развитие, сравнительная оценка, индекс туристской инфраструктуры, средства размещения, гостиничная инфраструктура, территориальные различия, рейтинговая оценка, туристский потенциал, Сурхандарьинская область.



Abstract. This article provides a comparative assessment of the territorial development level of tourism infrastructure across the cities and districts of the Surkhandarya region. The aim of the study is to determine the level of tourism infrastructure development across different territories based on statistical indicators, identify existing territorial disparities, and group cities and districts according to their level of development. The study applies statistical analysis, comparative and structural analysis, normalization, and ranking methods. The assessment criteria include the number of hotels and similar accommodation establishments, the number of rooms, available bed capacity, and the number of accommodated persons. Based on these indicators, a Territorial Tourism Infrastructure Development Index was calculated. The results show that tourism infrastructure is unevenly distributed across the region, with the city of Termez holding the leading position, followed by the Baysun and Denau districts. At the same time, several districts demonstrate a relatively low level of infrastructure provision. Based on the findings, recommendations are proposed to promote more balanced territorial development of tourism infrastructure, direct investments toward districts with high tourism potential, and improve the system of territorial monitoring and ranking.

Keywords: tourism infrastructure, territorial development, comparative assessment, tourism infrastructure index, accommodation facilities, hotel infrastructure, territorial disparities, ranking, tourism potential, Surkhandarya region.

KIRISH

Turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hududning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish hamda turizmning hududiy iqtisodiyotdagi rolini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Turistik destinatsiyaning jozibadorligi tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar bilan bir qatorda, mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish, servis, savdo hamda rekreatsiya obyektlarining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq.

Shu sababli turizm infratuzilmasining hududlar kesimidagi holatini baholash, mavjud tafovutlarni aniqlash va rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan hududlarni belgilash turizm siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda so'nggi yillarda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bo'yicha mamlakat hududlari o'rtasida muayyan farqlar mavjud bo'lib, bu holat turistik obyektlar, joylashtirish vositalari, transport imkoniyatlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining hududlar bo'yicha notekis joylashuvi bilan bog'liq.

Mazkur holat turizm infratuzilmasini baholashda umumrespublika ko'rsatkichlari bilan cheklanmasdan, alohida viloyat, shahar va tumanlar kesimida qiyosiy tahlil olib borishni talab etadi.

Surxondaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlari, arxeologik yodgorliklari, tog'li va rekreatsion hududlari hamda o'ziga xos tabiiy resurslari bilan turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega.

Biroq mavjud turistik resurslardan to'liq foydalanish uchun hududlarda yetarli joylashtirish vositalari, qulay transport va servis infratuzilmasi, turistik xizmat ko'rsatish obyektlari hamda turistlarning ehtiyojlarini qondira oladigan zamonaviy xizmatlar tizimi mavjud bo'lishi zarur.

Turistik hududlarga kirish imkoniyati va infratuzilmaviy ta'minlanganlik darajasi turistlarning destinatsiyaning tanlashi hamda hududning turizm bozoridagi raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining rivojlanishi hududlar bo'yicha bir xil darajada kechmayapti. Ayrim shahar va tumanlarda mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, turistik xizmatlar hamda ularga xizmat qiluvchi infratuzilma nisbatan yaxshi shakllangan bo'lsa, boshqa hududlarda mazkur ko'rsatkichlar past darajada qolmoqda.

Bunday hududiy nomutanosiblik turistik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlarini cheklashi, turistik oqimlarning ayrim hududlarda to'planishiga hamda investitsiyalarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish holati, uning turizm rivojiga ta'siri va alohida infratuzilma elementlarining ahamiyati o'rganilgan bo'lsa-da, Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlari kesimida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini yagona ko'rsatkichlar tizimi asosida qiyosiy baholash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va ularni rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.



Mazkur ilmiy bo'shliq hududiy turizm infratuzilmasini statistik ko'rsatkichlar asosida tizimli baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini statistik ko'rsatkichlar asosida qiyosiy baholash, hududlar o'rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlarni aniqlash hamda ularni rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasi nisbatan rivojlangan va rivojlanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan hududlarni aniqlash, shuningdek, kelgusida investitsiya va infratuzilmaviy rivojlantirishning hududiy ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish darajasini baholash masalasi zamonaviy tadqiqotlarda turistik salohiyat, destinatsiya jozibadorligi, hududiy raqobatbardoshlik va barqaror turizm rivoji bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Turizm infratuzilmasining transport, joylashtirish, ovqatlanish, rekreatsiya va xizmat ko'rsatish kabi tarkibiy elementlari hududning turistik imkoniyatlaridan qay darajada foydalanilayotganini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar sifatida qaraladi.

G. Mamirkulova, J. Mi, J. Abbas, S. Mahmood, R. Mubeen va A. Ziapour (2020) Yangi Ipak yo'li infratuzilmasining turizm muhiti va mahalliy aholi farovonligiga ta'sirini tadqiq etganlar. Mualliflar turizm infratuzilmasining rivojlanishi barqaror turizm imkoniyatlarining kengayishi va mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash bilan ijobiy bog'liqligini aniqlaganlar. Shu bilan birga, faqat infratuzilmaning mavjudligi barqaror turizm rivojini to'liq ta'minlamasligi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik omillar ham hisobga olinishi zarurligi ta'kidlangan [3]. Mazkur yondashuv turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholashda obyektlar soni bilan cheklanib qolmasdan, ularning hududning umumiy turistik rivojiga xizmat qilish darajasini ham e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi.

Q.H. Nguyen (2021) turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalarning xalqaro turistlarni jalb qilishga ta'sirini Vyetnam misolida o'rgangan. Tadqiqotda transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, mehmonxona va restoran sohasi hamda rekreatsiya obyektlari turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ajratilgan. Uzoq muddatli tahlil natijalariga ko'ra, ushbu uch yo'nalishga kiritilgan investitsiyalar xalqaro turistlar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, bunda transport va kommunikatsiya infratuzilmasining ta'siri nisbatan yuqori bo'lgan [4]. Ushbu tadqiqot turizm infratuzilmasini hududiy baholashda turli infratuzilma komponentlarini alohida ko'rsatkichlar orqali qiyoslash muhimligini asoslaydi.

M. Raimkulov, H. Juratgurov va Y.J. Ahn (2021) O'zbekistondagi Ipak yo'li turistik destinatsiyalari jozibadorligini o'rganib, destinatsiya jozibadorligini ko'p o'lchovli tushuncha sifatida baholaganlar. Tadqiqotda madaniy jozibadorlik, tabiiy jozibadorlik, mahalliy aholi va turistik ustqurma, infratuzilma hamda narx jozibadorligi asosiy yo'nalishlar sifatida ajratilgan [5]. Mualliflar O'zbekistondagi Ipak yo'li destinatsiyalarida infratuzilma destinatsiya jozibadorligini shakllantiruvchi tarkibiy omillardan biri ekanligini ko'rsatganlar. Mazkur yondashuv Surxondaryo viloyatidagi shahar va tumanlarni qiyoslashda faqat turistik resurslar mavjudligini emas, balki ulardan foydalanishni ta'minlovchi infratuzilmaning shakllanganlik darajasini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

L. Gamidullaeva, S. Vasin, T. Tolstykh va S. Zinchenko (2022) hududlarning turizm salohiyatini baholashga kompleks yondashuvni taklif qilganlar. Mualliflar hududiy turizm salohiyatini asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi orqali baholash algoritmini ishlab chiqqan va hududiy turizmni turli ishtirokchilar hamda tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga asoslangan ekotizim sifatida ko'rib chiqqanlar. Tadqiqot natijasida turizm salohiyatini baholash asosida hudud rivojlanishining institutsional, biznes-imij, madaniy-ma'rifiy hamda innovatsion-texnologik ustuvor yo'nalishlari aniqlangan [6]. Ushbu metodologik yondashuv hududlarni bir xil statistik mezonlar asosida qiyoslash va rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash imkoniyatini beradi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar turizm infratuzilmasini baholashda transport, joylashtirish vositalari, turistik xizmatlar, rekreatsiya imkoniyatlari va boshqa infratuzilma elementlarini kompleks ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda hududlarni turizm salohiyati yoki infratuzilma holati bo'yicha qiyoslash va guruhlash yondashuvlari qo'llanilgan. Biroq Surxondaryo viloyatining alohida shahar va tumanlari kesimida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini statistik ko'rsatkichlar asosida qiyosiy baholash va hududlarni rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash masalasi alohida empirik tadqiqotni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud yondashuvlarni hududiy darajada qo'llash va Surxondaryodagi infratuzilmaviy tafovutlarni aniqlashga qaratiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning obyekti Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida shakllangan turizm infratuzilmasi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududlar kesimida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini bir xil statistik mezonlar asosida qiyosiy baholash, mavjud hududiy tafovutlarni aniqlash hamda shahar va tumanlarni infratuzilmaviy rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlashdan iborat.

Tadqiqotning empirik bazasi sifatida Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil yakunlari bo'yicha turizm va dam olish sohasiga oid rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Mazkur statistik manbada mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining faoliyati shahar va tumanlar kesimida, jumladan, obyektlar soni, nomerlar soni, mavjud joylar hamda joylashtirilgan shaxslar soni bo'yicha keltirilgan [7]. Hududlarning turizm infratuzilmasini qiyosiy baholashda quyidagi to'rtta asosiy ko'rsatkich tanlandi: mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni (X_1), nomerlar soni (X_2), joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (X_3) va ularda joylashtirilgan shaxslar soni (X_4). Mazkur ko'rsatkichlarning tanlanishi turizm infratuzilmasining mavjud quvvati hamda undan amalda foydalanish darajasini birgalikda baholash imkonini beradi. Turizmga oid ko'rsatkichlarni shakllantirish va talqin qilishda UN Tourism va BMT Statistika bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan International Recommendations for Tourism Statistics (IRTS 2008) yondashuvlari metodologik asos sifatida hisobga olindi. Ushbu standart turizm statistikasini shakllantirish uchun umumiy tushunchalar, ta'riflar va tasniflarni belgilaydi [8].

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, normallashtirish va reytinglash usullaridan foydalanildi. Dastlab tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha har bir shahar va tumanning mutlaq qiymatlari o'zaro taqqoslandi. Keyingi bosqichda turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni yagona baholash tizimiga keltirish maqsadida ular 0 dan 100 ballgacha normallashtirildi.

Normallashtirilgan ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$Z_{ij} = (X_{ij} / X_{maxj}) \times 100$$

bunda:

Z_{ij} – i-hududning j-ko'rsatkich bo'yicha normallashtirilgan qiymati;

X_{ij} – i-hududning j-ko'rsatkich bo'yicha haqiqiy qiymati;

X_{maxj} – j-ko'rsatkich bo'yicha hududlar orasidagi eng yuqori qiymat.

Mazkur usulda har bir indikator bo'yicha eng yuqori natijaga ega hudud 100 ball oladi, qolgan hududlarning ko'rsatkichlari esa unga nisbatan mutanosib ravishda baholanadi. Keyingi bosqichda har bir hudud uchun Turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish indeksi (TIHRI) hisoblandi. Bunda to'rtta normallashtirilgan ko'rsatkichning o'rtacha qiymati olindi:

$$TIHRI_i = (Z_1 + Z_2 + Z_3 + Z_4) / 4$$

Indeks qiymati 0 dan 100 ballgacha shakllanadi. Hisoblangan natijalar asosida Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlari uch guruhga ajratildi:

- 66,7–100 ball – turizm infratuzilmasi yuqori rivojlangan hududlar;
- 33,4–66,6 ball – o'rta darajada rivojlangan hududlar;
- 0–33,3 ball – nisbatan past darajada rivojlangan hududlar.

Mazkur chegaralar tadqiqot doirasida 100 ballik baholash diapazonini uchta teng intervalga ajratish asosida belgilandi. Shuning uchun ular xalqaro standart sifatida emas, balki hududlarni qiyosiy guruhlash uchun qo'llanilgan mualliflik mezoni sifatida talqin qilinadi. Olingan natijalar jadval va diagrammalar yordamida tizimlashtirilib, hududlarning reytingdagi o'rni, infratuzilmaviy rivojlanish darajasi hamda shahar va tumanlar o'rtasidagi asosiy tafovutlar aniqlandi. Ushbu metodologiya murakkab ekonometrik hisob-kitoblardan foydalanmasdan, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining hududiy joylashuvi va rivojlanish darajasini miqdoriy jihatdan qiyoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlari kesimida turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish darajasini baholash uchun 2024-yil bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, ularda joylashtirilgan shaxslar soni, nomerlar soni hamda mavjud joylar soni tahlil qilindi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda viloyatda jami 80 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan, ularda 1 260 ta nomer va 2 464 ta joy mavjud bo'lgan hamda 91,6 ming kishi joylashtirilgan [9].

Hududlar kesimidagi tahlil turizm infratuzilmasining viloyat bo'yicha bir tekis shakllanmaganligini ko'rsatdi. Termiz shahrida 38 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositasi mavjud bo'lib, bu viloyatdagi jami obyektlarning 47,5 foizini tashkil etadi. Shuningdek, Termiz shahrida 670 ta nomer, 1 265 ta joy mavjud bo'lib,



yil davomida 52,9 ming kishi joylashtirilgan. Boysun tumanida 14 ta, Denov tumanida 6 ta, Sariosiyo, Termiz va Sherobod tumanlarida esa 4 tadan joylashtirish obyekti faoliyat yuritgan. Angor, Bandixon, Muzrabot va Qiziriq tumanlarida esa ushbu toifadagi joylashtirish vositalari 2024-yil statistik ma'lumotlarida qayd etilmagan [9] (1-jadval).

1-jadval

Surxondaryo viloyati hududlarida turizm infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari va TIHRI indeksi, 2024-yil¹

Hudud	Joylashtirish obyektlari, ta	Joylashtirilgan shaxslar, ming kishi	Nomerlar, ta	Joylar, ta	TIHRI, ball	Reyting
Termiz shahri	38	52,9	670	1 265	100,00	1
Boysun	14	8,2	134	287	23,76	2
Denov	6	16,6	131	220	21,03	3
Termiz tumani	4	6,1	124	210	14,29	4
Sho'rchi	3	5,3	40	111	8,16	5
Sherobod	4	0,6	51	112	7,03	6
Sariosiyo	4	1,0	36	73	5,89	7
Uzun	2	0,6	28	60	3,83	8
Qumqo'rg'on	2	0,2	30	60	3,72	9
Oltinsoy	2	0,07	11	46	2,67	10
Jarqo'rg'on	1	0,01	5	20	1,24	11
Angor	–	–	–	–	0,00	12–15
Bandixon	–	–	–	–	0,00	12–15
Muzrabot	–	–	–	–	0,00	12–15
Qiziriq	–	–	–	–	0,00	12–15

Hisoblangan Turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish indeksi (TIHRI) natijalariga ko'ra, Termiz shahri 100 ball bilan mutlaq yetakchi hudud sifatida shakllandi. Bu natija shaharning barcha to'rtta baholash ko'rsatkichi bo'yicha viloyatdagi eng yuqori qiymatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Xususan, viloyatda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida xizmat ko'rsatilgan jami 91,6 ming kishining 52,9 ming nafari, ya'ni qariyb 57,8 foizi Termiz shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, viloyatdagi nomerlarning 53,2 foizi va mavjud joylarning 51,3 foizi ham Termiz shahrida jamlangan. Ushbu ko'rsatkichlar turizm infratuzilmasining viloyat markazida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko'rsatadi [9].

Ikkinchi o'rinni Boysun tumani 23,76 ball bilan egalladi. Tumanda 14 ta joylashtirish obyekti, 134 ta nomer va 287 ta joy mavjud bo'lib, ularda 8,2 ming kishi joylashtirilgan. Boysun obyektlar soni bo'yicha Termiz shahridan keyingi o'rinda turgan bo'lsa-da, turistlarni joylashtirish hajmi bo'yicha Denov tumanidan ortda qolgan. Bu holat turizm infratuzilmasining rivojlanishini faqat obyektlar soni orqali baholash yetarli emasligini, ularning sig'imi va amalda foydalanilish darajasini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Denov tumani 21,03 ball bilan uchinchi o'rinni egalladi. Denovda joylashtirish vositalari soni Boysunga nisbatan kam — 6 ta bo'lishiga qaramay, ularda 16,6 ming kishi joylashtirilgan. Mazkur ko'rsatkich Termiz shahridan keyingi ikkinchi eng yuqori natijadir. Bu Denovdagi mavjud joylashtirish infratuzilmasidan foydalanish intensivligi nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Termiz tumani esa 14,29 ball bilan to'rtinchi o'rinni egallab, 124 ta nomer va 210 ta joyga ega bo'lgan.

Metodologiyada belgilangan guruhlash mezonlariga muvofiq, 66,7–100 ball oralig'idagi yuqori rivojlangan guruhga faqat Termiz shahri kirdi. 33,4–66,6 ball oralig'idagi o'rta rivojlangan guruhga esa birorta hudud kirmadi.

1 Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



Boysun va Denov kabi keyingi yuqori natijaga ega tumanlarning ham TIHRI qiymati 25 balldan past bo'ldi. Qolgan barcha tumanlar 0–33,3 ball diapazonida shakllandi. Bu natija Termiz shahri bilan viloyatning boshqa hududlari o'rtasida turizm infratuzilmasi rivojlanishi bo'yicha sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Bunda indeksning past qiymati hududning turistik salohiyati mavjud emasligini anglatmaydi. U aynan tadqiqotda tanlangan joylashtirish infratuzilmasi ko'rsatkichlari bo'yicha nisbiy ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sariosiyo va boshqa hududlari tabiiy, rekreatsion hamda tarixiy-madaniy resurslarga ega bo'lishiga qaramay, mavjud joylashtirish quvvatlari Termiz shahriga nisbatan ancha past. Makhmudova A.P. va Khasanova Y.K. ham Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirishda mavjud turistik-rekreatsion salohiyatdan foydalanish bilan bir qatorda, turizm infratuzilmasi va turizm logistikasini rivojlantirish muhimligini qayd etganlar [10].

Shuningdek, Sho'rchi, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida TIHRI mos ravishda 8,16; 7,03 va 5,89 ballni tashkil etdi. Uzun, Qumqo'rg'on, Oltinsoy va Jarqo'rg'on tumanlarida esa indeks 4 balldan ham past bo'ldi. Eng past holat Angor, Bandixon, Muzrabot va Qiziriq tumanlarida kuzatilib, 2024-yil rasmiy statistik ma'lumotlarida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari qayd etilmagani sababli, ularning ushbu indeks bo'yicha qiymati 0 ballni tashkil etdi [9].

Olingan natijalar Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanishida markazlashuv tendensiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bir tomondan, Termiz shahrida joylashtirish quvvatlarining shakllanganligi viloyat turizmi uchun tayanch markaz vazifasini bajaradi. Ikkinchi tomondan, infratuzilmaning keskin hududiy konsentratsiyasi turistik salohiyati yuqori bo'lgan chekka tumanlarda turistlarning uzoqroq qolishi, turistik xarajatlarning hududda shakllanishi va yangi xizmat ko'rsatish faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli kelgusida turizm infratuzilmasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni faqat mavjud yetakchi hududlarda jamlashdan ko'ra, Boysun, Sariosiyo, Sherobod, Oltinsoy va boshqa turistik salohiyatga ega tumanlarning infratuzilmaviy ta'minlanganligini oshirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasining hududlar bo'yicha rivojlanish darajasi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Hisoblangan Turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish indeksi natijalariga ko'ra, Termiz shahri barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, viloyat turizm infratuzilmasining asosiy markazi sifatida shakllangan. Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, nomerlar, mavjud o'rinlar hamda joylashtirilgan shaxslarning katta qismi aynan Termiz shahrida jamlangan. Bu esa viloyatda turizm infratuzilmasining yuqori darajada markazlashganligini ko'rsatadi.

Boysun va Denov tumanlari Termiz shahridan keyingi yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa-da, ularning indeks qiymatlari yetakchi hudud bilan solishtirganda ancha past bo'lib qoldi. Shu bilan birga, Sho'rchi, Sherobod, Sariosiyo, Uzun, Qumqo'rg'on, Oltinsoy va Jarqo'rg'on tumanlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi nisbatan past ekanligi aniqlandi. Ayrim tumanlarda esa mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining deyarli mavjud emasligi hududlarning turistik resurslaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Ushbu natijalar hududning turistik salohiyati bilan mavjud infratuzilma imkoniyatlari o'rtasida ma'lum nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini faqat turistik resurslarning mavjudligi bilan baholash yetarli emas. Hududda turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan joylashtirish vositalari, transport imkoniyatlari, servis va boshqa infratuzilma elementlarining yetarli darajada shakllanishi muhim hisoblanadi. Shu sababli turizm infratuzilmasini rivojlantirish siyosatida hududlar o'rtasidagi mavjud tafovutlarni kamaytirish va turistik salohiyati yuqori, biroq infratuzilmaviy ta'minlanganligi past hududlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini hududiy differensial yondashuv asosida shakllantirish zarur. Bunda Termiz shahrida mavjud infratuzilmani sifat jihatidan takomillashtirish bilan bir qatorda, Boysun, Sariosiyo, Sherobod, Oltinsoy va boshqa turistik salohiyatga ega tumanlarda yangi joylashtirish va servis obyektlarini tashkil etishga ustuvorlik berish lozim.

Ikkinchidan, turizm infratuzilmasi nisbatan past rivojlangan hududlarda oilaviy mehmon uylari, kichik mehmonxonalar, hostellar, umumiy ovqatlanish va mahalliy transport xizmatlarini tashkil etuvchi kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu yirik investitsiya loyihalarisiz ham hududlarning turistlarni qabul qilish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda mehmonxona va joylashtirish obyektlarini alohida rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, transport, yo'l, axborot, ovqatlanish, savdo va rekreatsiya xizmatlarini o'zaro bog'langan tizim sifatida shakllantirish zarur. Ayniqsa, turistik obyektlarga yetib borish imkoniyati



cheklangan hududlarda transport infratuzilmasini yaxshilash turizm xizmatlariga talabning oshishiga xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchidan, viloyatning shahar va tumanlari bo'yicha turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini muntazam monitoring qilish va reytinglash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda mehmonxona va joylashtirish vositalari soni, nomer va o'rinlar sig'imi, xizmat ko'rsatilgan turistlar soni hamda boshqa infratuzilma ko'rsatkichlari asosida hududlarning yillik rivojlanish dinamikasi baholanib borilishi lozim.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini hududiy jihatdan muvozanatli rivojlantirish, turistik salohiyati yuqori tumanlarga investitsiyalarni faol yo'naltirish hamda kichik biznesning turizm xizmatlari tizimidagi ishtirokini kengaytirish viloyatning mavjud turistik resurslaridan samarali foydalanish va hududlar o'rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arabov N., Nasimov D., Janzakov B., Khomitov K., Utemuratova G., Abduraimov D., Ismailov B. Shaping the Future of Uzbekistan's Tourism: An In-depth Analysis of Infrastructure Influence and Strategic Planning // Journal of Eastern European and Central Asian Research. – 2024. – Vol. 11, No. 1. – P. 53–65. – DOI: 10.15549/jeecar.v11i1.1478.
2. Karimov M. U., Jeong J. Y., Sobirov Y., Choi C. The Role of Transportation Infrastructure in the Development of International Tourism in Uzbekistan // Journal of Tourism & Development. – 2023. – Vol. 41. – P. 403–420. – DOI: 10.34624/rtd.v41i0.30576.
3. Mamirkulova G., Mi J., Abbas J., Mahmood S., Mubeen R., Ziapour A. New Silk Road Infrastructure Opportunities in Developing Tourism Environment for Residents Better Quality of Life // Global Ecology and Conservation. – 2020. – Vol. 24. – Art. e01194. – DOI: 10.1016/j.gecco.2020.e01194.
4. Nguyen Q. H. Impact of Investment in Tourism Infrastructure Development on Attracting International Visitors: A Nonlinear Panel ARDL Approach Using Vietnam's Data // Economies. – 2021. – Vol. 9, No. 3. – Art. 131. – DOI: 10.3390/economies9030131.
5. Raimkulov M., Juraturgunov H., Ahn Y. J. Destination Attractiveness and Memorable Travel Experiences in Silk Road Tourism in Uzbekistan // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 4. – Art. 2252. – DOI: 10.3390/su13042252.
6. Gamidullaeva L., Vasin S., Tolstykh T., Zinchenko S. Approach to Regional Tourism Potential Assessment in View of Cross-Sectoral Ecosystem Development // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, No. 22. – Art. 15476. – DOI: 10.3390/su142215476.
7. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi: 2024-yil uchun. – Termiz, 2025.
8. United Nations, World Tourism Organization. International Recommendations for Tourism Statistics 2008 (IRTS 2008). – New York: United Nations, 2010. – ST/ESA/STAT/SER.M/83/Rev.1.
9. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi: 2024-yil uchun. – Termiz, 2025.
10. Makhmudova A. P., Khasanova Y. K. Strategic Directions of Tourism Development in Surkhandarya Region // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2023. – Vol. 4, No. 2. – DOI: 10.17605/OSF.IO/23WMN



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>